

MULOQOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

FarDU amaliy ingliz tili kursi kafedrası o‘qituvchisi

Qo‘chqarova Musharraf Ilhomovna

musharrafkuchkarova616@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikning tanishuv va tanishtiruv jarayonlarini ya’ni murakkab jarayon bo‘lgan muloqotning rivojlanish bosqichlari va uning mohiyati, o‘ziga xos qonuniyatlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Annotation: The article provides a brief description of the processes of familiarization and familiarization in linguistics, that is, the stages of the development of communication, which is a complex process, and its essence and specific laws.

Аннотация: В статье дается краткая характеристика процессов ознакомления в языкознании, то есть этапов развития общения, представляющего собой сложный процесс, его сущности и конкретных закономерностей.

Kalit so‘zlar: Muloqot, kompozitsiya, adresant, adresat, komunikant, presuppozitsiya, ekspozitsiya, kulminatsiya, lisoniy aspekt.

Key words: Communication, composition, addressee, addressee, communicant, presupposition, exposition, culmination, linguistic aspect.

Ключевые слова: Коммуникация, композиция, адресат, адресат, коммуникатор, пресуппозиция, изложение, кульминация, языковой аспект.

Inson yaralibdiki bir biri bilan muloqot qilishga, fikr almashishga hamisha muhtojdir. Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. “Muloqot” tushunchasining turlicha ta’riflari mavjud. Muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayonidir.

Olimlarning e’tirof etishlariga ko‘ra “ ... Nutqiy muloqotning to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo‘lishi, umumiy vaziyat bilan bog‘liq.

Muayyan bilim – xabardorlikka ega bo‘lishlari lozim. Aynan shu faktlar, bilimlar, tilshunoslikda presuppozitya nomi bilan umumlashtiriladi [1]. Jumladan, kimgadir nimadir demoqchi bo‘lgan kishi, eng avvalo, adresantning u aytmqochi bo‘lgan gap presuppozitsiyasi bilan aloqadorligini inobatga oladi. Ya’ni, aytiladigan gapga aloqador voqelik bilan oldindan tanish bo‘lgan adresat uchun adresatning asosiy fikrni bir yoki bir necha so‘z orqali bayon etishi kifoya qiladi. Masalan, noma’lum sababga ko‘ra biror yerdan kelishi kechikayotgan o‘g‘lini havotirlik bilan kutayotgan ona uchun undan habar olgani chiqib ketgan kishining “keldi” degan so‘zining o‘zi o‘g‘lining (boshqa birovning emas) kutilayotgan yerdan kelganligi haqidagi xabarni beradi. Ammo adresat presuppozitsiyadan mutlaqo bexabar, buning ustiga adresatning o‘zi bilan ham notanish bo‘lsa, u holda muloqotning to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun adresatning gapni boshlashiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun “... inson o‘z ijodiy faoliyatining barcha sohasida kompozitsiya to‘g‘risidagi muayyan prinsiplarga amal qilishi ham bejiz emas. Kishilar bunga ko‘p vaqt ongda o‘rganishib qolgan an’analar asosida, ongli ravishda, ba’zan esa go‘zallik tuyg‘usi ta’sirida beihtiyor amal qiladilar ...”[2].

Jumladan, mutaxassislardan va musiqadan xabardor kishilardan boshqalar u qadar e’tibor bermaydigan kuyni bastakor “**daromad**”, “**dunasr**”, “**miyonxat**”, “**avj**”, “**siporish**” kabi pardalar orqali tinglovchi qalbi va shuuriga yetkazishga harakat qiladi.

Yozuvchi va shoirlar esa o‘z asarlarida ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oyani “**ekspoztsiya**” (lotincha, “bayon”, “tushuntirish”), “**tugun**”, “**rivoya**”, “**kulminatsiya**” (lotincha, “cho‘qqi”), “**yechim**” kabi tarkibiy qismlar orqali kitobxon ongiga singdirishga urinadilar.

Hamma sohada bo‘lgani kabi, muloqot jarayoni ham kompozitsiyon tuzilishga ega va uning bosqichlarini tahlil etish nutqni ijtimoiy- lisoniy aspektda tadqiq etishimizda katta ahamiyat kasb etadi.

Muloqotda adresant va adresatlar faoliyati funksiyanal farqlanganligi kabi kompozitsion jihatdan ham farqlanadi. Shuning uchun professor S.Mo‘minov adresant va adresatlar faoliyatini kompozitsion jihatdan alohida-alohida tahlil etishni ma’qul topadi va ular faoliyatini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Adresant faoliyati bosqichlari:

- 1) salomlashuv va murojat bosqichi
- 2) tanishuv bosqichi
- 3) daromad bosqichi
- 4) muddao bosqichi
- 5) xotima yoki xayrlashuv bosqichi

2. Adresat faoliyati bosqichlari

- 1) tinglash bosqichi
- 2) munosabat bildirish bosqichi [3].

Bu bosqichlarning muloqotda, jumladan, tanishuv bosqichida tutgan o‘rni o‘zbek muloqot xulqi bilan bog‘liqdir. Har bir sohada bo‘lgani kabi ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida ro‘y beradigan muloqot to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun yuqoridagi bosqichlarga amal qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, 6-сон, 29-б..
2. Адабиёт назарияси, академик М. К. Нурмухамедов таҳрири остида, 1-том, Тошкент: Фан, 1978, 264-б.
3. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фанл. докт. дисс. – Тошкент, 2000. Б. 66..

4. Муминов, С., Эҳсонова, М. (2021). Linguapoetic features of English derivations in literary text. *Международный журнал языка, образования, перевода*, 4(2), 90-67.
5. Муминов, С., Мўминов, Ш. (2022). Шахс маънавиятини ўстиришда рағбатнинг ўрни ва унинг раҳбар мулоқот хулқида намоён бўлиши. // “Янги Ўзбекистон: барқарор ривожланишнинг ижтимоий-фалсафий, иқтисодий-сиёсий ва ҳуқуқий масалалари” мавзuidaги халқаро илмий-амалий конференция...
6. Mo‘minov, Sh.S. (2022). Memuar, bag‘ishlov va marsiyalarda rahbar muloqot xulqiga xos qirralarning namoyon bo‘lishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 689-694.
7. Мўминов, Ш.С. (2022). Раҳбар нутқининг таъсир ўтказиш усуллари. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 418-426.